

## YUL XARAKATINI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**A.A. Qarajanova**

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali*

**D.K. Sipatdinova**

**S.Saparbaeva**

*No1 sonli kasb-hunar maktabi o'qutivchisi*

**S.Xudaybergenov**

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali, 2-kurs talabasi*

**Annotaciya:** *Ushbu maqolada yul harakatini tashkil etishda elektron hisoblash mashinalari (EXM) yordamida avtobus va trolleybus, shuningdek, yalpi yuk tashuvchi avtomobilarning optimal harakatlanish grafigini tug'ri tuzish katta ahamiyatga ega ekanligi keltirilgan. Shuningdek, harakat havfsizligi buyicha soha me'yoriy hujjatlari so'z etilgan.*

**Tayanch so'zlar va iboralar:** *harakat; qonun; me'yor; transport oqimi; havfsiz harakat.*

Yul harakatini tashkil etish - transport vositalari oqimini maksimal darajada yulning geometrik ulcham imkoniyatlaridan foydalanib, uning har xil bulaklarida xavfsiz xarakat tartibini va yuqori o'tkazish kobiliyatini ta`minlashga qaratilgan tadbirlar tizimidan iborat. Shuningdek, turli rusumli avtomobilarning har xil dinamik sifati harakat tartibiga ta'sir qilishi mukarrar. Yul harakatida avtomobilarning o'zaro ta'siri harakat miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha orta boradi. Yul xarakatini tashkil etish tamoyillari transport oqimini tug'ri yunaltirishga, kerak hollarda ularni tezliklar buyicha guruhlarga ajratishga, har bir yul bulagi uchun racional tezliklarni belgilashga, xaydovchilarga o'z vaqtida harakat marshruti va yul sharoiti to'g'risida axborot berishga qaratilgan.

Avtomobil yo'llarida harakat tartibsiz ravishda vujudga keladi. Har bir xaydovchi o'ziga qulay harakat tartibini tanlaydi hamda o'zi tanlagan harakat tartibining boshqa harakat qatnashchilariga ta'siri bilan hisoblashmaydi. Harakatni tashkil etishni takomillashtirish progressiv boshkarish (harakatni boshkarishning avtomatik tizimi; svetofor ob'ektlarini «yashil tulqin», «yashil kucha» tizimi usulida ishlashi; tezlashuvchi - sekinlashuvchi, reversiv, rezerv tasmalardan foydalanish, ba'zi bir kuchalarni bir tomonlama xarakatga utkazish va xk.) chorraxalarni xar xil sathda o'tkazish, shuningdek, transport vositalarining harakat marshrutini racional ravishda tanlash yordamida erishiladi. Harakatni tashkil etish maqsadida asosiy magistralning tirband yul bulaklaridagi transport oqimining harakatini aylanma yullar orqali o'tkazishga intiladi. Harakatlanish tartibini oshirish uchun avtomobil va avtobuslarga ikki tomonlama radio aloka o'rnatiladi. Bu esa xarakat 5 o'zgarishini yulda nazorat kilish imkonini beradi. Yul harakatini tashkil etishda quyidagi hujjatlarning ahamiyati kattadir: "Yul harakati havfsizligi tug'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni; yul harakati qoidasi;

transport vositalarining konstruktiv havfsizlik me`yorlari; yul va kuchalar uchun qurilish me`yorlari va koidalari. Avtomobil transportining ishini, haydovchi mehnatini, yuldag'i transport vositalari va piyodalarning harakatini tashkil kilishni bir biridan farqdash lozim. Birinchi ikki masala bilan asosan avtokorxonalar, keyingisi bilan esa yul xujaliklari, yul harakati havfsizligi organlari va hokimiyat vakillari shug'ullanadilar. Yuqoridagilardan kelib chikib, yul harakatini tashkil qilishning asosiy maqsadi deb har xil transport vositalarini yuqori tezlik bilan yulning turli bulagidan yilning har kanday ob-xavo sharoitlarida xavfsiz utkazish tushuniladi. Harakatni tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: - transport vositalarining harakat tartibini belgilash va ta`minlash; - avtomobillarning yuqori samaradorlik bilan ishlashini xar kanday ob-xavo sharoitida ta`minlash va eng yaxshi yul sharoitlarini vujudga keltirish; - harakat xavfsizligini yulning har kanday bulagida va turli ob-havo sharoitlarida ta`minlash; - atrof - muxitni bulgatmaslik; - transport vositalarining va yul inshootlarining tez ishdan chiqmasligini ta`minlash. Harakatni tashkil kilish buyicha quyilgan vazifalarni muvaffakiyatli bajarish uchun turli vazirliklar, korporaciylar, koncernlar, uyushmalar va hokimiyatlar darajasida keng kulamli faol ishlar olib borilishi zarur. Harakatni tashkil qilishdagi echiladigan masalalar kulamiga karab, ularni uch darajaga bulish mumkin: 1. Davlat ahamiyatidagi daraja. Bu darajada yulda xarakatlanish konun va me`yorlari tuziladi, «Avtomobil - xaydovchi - yul - piyoda - muxit» tizimidagi elementlarga talab standartlashtiriladi, yul tarmogining rivojlanish rejali tuziladi, davlat mikiyosida avtomobillashtirish kulami muvofiklashtiriladi. 2. Vazirliklar darajisi. Bu daraja yulovchilarni va yuklarni tashishni takomillashtirish va rivojlantirish; transport vositalarini ishlab chiqarish; yullarni qurish, ta`mirlash; yulda yurishni tashkil kilishda ishlatiladigan texnik vositalarni ishlab chiqarish; haydovchilarni tayyorlash va yul qoidalalarini yul harakati qatnashchilariga targ'ibot qilish masalalari kurib chiqiladi. 3. Muhandis xizmati darajasi. Bu darajada yulda harakatni tashkil kilish buyicha izlanishlar; yulning havfli bulaklarida harakatlanish sharoitlarini yaxshilash; yulning turli bulaklarida buylama va kundalang kurinishni yaxshilash; transport vositalarini texnik 6 kurikdan utkazish; harakatni tashkil kilish uchun ishlatiladigan texnik vositalarni tatbik etish va ishlatish; xaydovchilar va piyodalarning yul harakati koidalariga rioya kilishlarini nazorat kilib borish masadadari xal kilinadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta`minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyulda № PQ-3127-sonli «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

- 
3. Sweta Verma “An Introduction to computer Graphics, Sweta Verma” 2016
  4. Donald Hearn and M. Pauline Baker “Computer Graphics ”( Second Edition) 2015
  5. Matematik modellashtirish, axborot-kommunikatsiya Texnologiyalarining dolzARB masalalari Respublika ilmiy-texnik anjumaning Ma'ruzalar to'plami  
(nukus, 2022 yil 17-18 noyabr)- Yo'l harakati xavfsizligini yaxshilashda axborot texnologiyalarining ahamiyati.